

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNING KUZATUV KENGASHIGA
NOMZODLARNI SHAKLLANTIRISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-
TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Vazirlar Mahkamasining “2021 — 2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloq qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 29-martdagি 166-son **qarori** ijrosini ta‘minlash, davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi a’zoligiga nomzodlarni shakllantirish tartibini takomillashtirish va shaffofigini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) tomonidan ustav kapitali (fondi)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalari (keyingi o‘rinlarda — davlat ishtirokidagi korxonalar) kuzatuv kengashiga nomzodlarni jalg qilish jarayonini boshqarish, xususan, kuzatuv kengashi tarkibi hamda ularda yuz bergen o‘zgarishlarni markazlashgan holda yoritib borilishini ta‘minlovchi www.cns.davaktiv.uz maxsus veb-portali yaratilganligi;

Vazirlar Mahkamasining “2021 — 2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloq qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 29-martdagи 166-son **qarorida** kuzatuv kengashi tarkibi a’zoligiga nomzodlarni tarmoqqa oid bilim, boshqaruv tajribasi, moliyaviy, korporativ boshqaruv, strategik rejalashtirish hamda boshqa malakalar kabi mezonlar asosida tanlab olish amaliyotini bosqichma-bosqich joriy etish hamda ularga to‘lanadigan haq miqdori korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari asosida aniqlanishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo‘yicha nomzodlarni tanlab olish tartibi to‘g‘risidagi nizom **1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:**

davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga nomzodlarga qo‘yiladigan talablar, nomzodlarni saralash bosqichlari va tartibi;

nomzodlarni tanlab olish komissiyasining asosiy vazifalari, huquq va majburiyatları;

nomzodlarni belgilangan mezonlar asosida baholashdan o‘tkazish, saralash jarayonini markazlashgan holda boshqarish va raqamlashtirish tartibi.

3. Davlat nomidan mulkdor (muassis, aksiyador, ishtirokchi) funksiyalarini bajaruvchi vazirlik va idoralar davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo‘yicha nomzodlarni taklif etishda mazkur qaror talablariga qat’iy rioya qilinishini ta‘minlasin.

4. Shunday tartib belgilansinki, unga muvofiq:

2023-yil 1-yanvardan boshlab davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan ularning boshqaruv va nazorat organlarining amaldagi tarkibidagi o‘zgarishlar, mavjud bo‘sh o‘rinlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ushbu o‘zgarishlar sodir bo‘lgan sanadan ikki ish kuni ichida majburiy tartibda www.cns.davaktiv.uz maxsus portaliga joylashtirib boriladi;

davlat ishtirokidagi korxonalarning boshqaruv va nazorat organlarining amaldagi tarkibidagi o‘zgarishlar, ularagi mavjud bo‘sh o‘rinlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni maxsus portalga joylashtirmagan korxonalarning ijro etuvchi organi hamda kuzatuv kengashi a’zolarini rag‘batlantirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

5. Agentlik Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi bilan birgalikda 2023-yil 1-yanvarga qadar davlat ishtirokidagi korxonalarning boshqaruv organlari a’zolari to‘g‘risidagi ma’lumotlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish uchun tegishli axborot tizimlarining o‘zaro avtomatik tarzda integratsiya qilinishini;

manfaatdor vazirlik, idoralar bilan birgalikda www.cns.davaktiv.uz maxsus veb-portalini uning amaliyotda ishlash natijalaridan kelib chiqib, doimiy takomillashtirib borish choralari ko‘rilishini ta’minlasin.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, tegishli vazirlik va idoralar Agentlik bilan birgalikda:

o‘zları davlat nomidan mulkdor (muassis, aksiyador, ishtirokchi) bo‘lgan davlat ishtirokidagi korxonalar boshqaruv va nazorat organlarining amaldagi tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bir oy muddatda www.cns.davaktiv.uz maxsus portaliga joylashtirilishini;

o‘zları qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qaror talablariga muvofiqlashtirilishini ta’minlasin.

7. Belgilansinki:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiyashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 27-oktabrdagi PF-6096-son Farmonining **1** va **2-ilovalariga** kiritilgan korxonalarga nisbatan mazkur qaror talablari tatbiq qilinmaydi;

mazkur korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo‘yicha nomzodlar tarkibi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan ushbu korxonalarda davlat nomidan mulkdor (muassis, aksiyador, ishtirokchi) funksiyalarini bajaruvchi vazirlik, idoralar hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi bilan kelishilgan holda shakllantiriladi.

8. Ushbu qarorga **1-ilova** 2023-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining **2-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qtgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari — iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vaziri J.A. Qo‘chqorov va O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori A.J. Ortiqov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2022-yil 4-noyabr,
647-son

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-noyabrdagi 647-son **qaroriga**
1-ILOVA

**Davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo‘yicha
nomzodlarni tanlab olish tartibi to‘g‘risida**

NIZOM

1-bob. Umumi qoidalar

1. Ushbu Nizom davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo‘yicha nomzodlarni tanlab olish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom talablari davlat nomidan mulkdor (muassis, aksiyador, ishtirokchi) huquqi va funksiyalari mahalliy ijroiya hokimiyati organlari va davlat unitar korxonalari tomonidan amalga oshirilayotgan korxonalarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

davlat ishtirokidagi korxonalar (keyingi o‘rnarda — korxona) — ustav kapitali (fondi)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalari;

vakolatli davlat organi — korxonalarda davlat nomidan mulkdor (muassis, aksiyador, ishtirokchi) huquqi va funksiyalarini amalga oshiruvchi vazirlik va idoralar;

kuzatuv kengashi — korxonaning faoliyatiga umumiyligi rahbarlikni va zimmasiga qonunchilik hujjatlari hamda korxona ustavi, ichki me'yoriy hujjatlari bilan yuklatilgan vazifalarni amalga oshiradigan boshqaruv organi;

maxsus veb-portal — Davlat aktivlarini boshqarish agentligining korxonalarining boshqaruv va nazorat organlari a'zolari ro'yxatini yuritish, ular tarkibidagi o'zgarishlar monitoringini olib borish va bo'sh o'rinalar to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish uchun mo'ljallangan www.cns.davaktiv.uz veb-portal;

nomzodlarni tanlab olish — mazkur nizomda belgilangan tartibga muvofiq va mezonlar asosida eng maqbul nomzodlarni tanlab olish tizimi;

nomzodlarni tanlab olish komissiyasi (keyingi o'rnlarda — komissiya) — korxonalarining kuzatuv kengashi tarkibiga nomzodlarni saralash va tanlab olish uchun tarkibi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan tasdiqlanadigan komissiya;

kuzatuv kengashining a'zosi — korxonaning kuzatuv kengashi tarkibiga aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiyligi yig'ilishi yoki yagona aksiyador (ishtirokchi), mulkdor (muassis) qarori bilan muayyan muddatga tayinlangan (saylangan) shaxs;

mustaqil a'zo — qonunchilik hujjatlarida mustaqil a'zo deb e'tirof etish uchun belgilangan talablarga muvofiq bo'lgan kuzatuv kengashi a'zosi;

nomzodlar bo'yicha ma'lumotlar bazasi — korxonalarining amaldagi kuzatuv kengashi a'zolari, shu jumladan mustaqil a'zolari, maxsus veb-portal ma'lumotlari va nomzodlarni izlab topishga ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan nomzodlar ro'yxati, shuningdek ularning mehnat faoliyati va ish tajribasi to'g'risidagi qisqacha ma'lumotlar (rezyume) jamlanmasi.

3. Kuzatuv kengashi tarkibiga nomzodlarni saralash va tanlab olish komissiya tomonidan kuzatuv kengashining amaldagi tarkibini qayta ko'rib chiqish, kuzatuv kengashi a'zolarining vakolatini muddatidan oldin tugatish natijasida yuzaga keladigan mavjud bo'sh o'rinaliga a'zo tayinlash (saylash) uchun amalga oshiriladi.

Korxona ustav kapitali (fondi)da davlat ulushining o'zgarishi (oshishi, kamayishi, vujudga kelishi), amaldagi a'zolarning kuzatuv kengashi tarkibidan chiqish to'g'risidagi arizasi, korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari, shuningdek mulkdorning (muassis, aksiyador, ishtirokchi) xohishi (taklifi)ga ko'ra amaldagi kuzatuv kengashi a'zolari tarkibini o'zgartirish tashabbusi bilan chiqilishiga asos bo'lishi mumkin.

4. Korxonaning ta'sis hujjatlarida kuzatuv kengashi a'zolari uchun gender tenglik nazarda tutilgan bo'lsa, nomzodlarni tanlab olish ayol va erkak nomzodlar uchun alohida amalga oshirilishi mumkin.

5. Nomzodlarni tanlab olish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

shaffoflik — ommaviy axborot vositalarida, maxsus veb-portalda, shuningdek qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalarda tegishli e'lonlar, bo'sh o'rinalar, tanlab olish tartibi, mezonlari va natijalariga oid ma'lumotlarni chop etish;

tenglik — tanlab olishda jarayonida ishtirok etadigan barcha nomzodlarga bir xil shart-sharoitlar yaratish;

raqobat — tanlab olish jarayoni ochiq va to'g'ri raqobatga asoslangan bo'lishi;

mustaqillik — tanlab olish jarayoni har qanday siyosiy va ma'muriy aralashuv yoki boshqa tashqi ta'sirlardan holi va mustaqil amalga oshirilishi.

2-bob. Nomzodlarga qo'yiladigan talablar

6. Kuzatuv kengashi a'zoligiga nomzodlar zimmasiga quyidagi fidutsiar majburiyatlarni oladi:

jonkuyarlikni namoyon qilish majburiyati — kuzatuv kengashi a'zosi sifatida vijdonan va jonkuyarlik asosida harakat qilish;

sodiqlikni namoyon qilish va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik majburiyati — kuzatuv kengashi a'zosi sifatida birinchi navbatda korxona manfaatlaridan kelib chiqib harakat qilish;

lozim darajada ko'zdan kechirishlikni namoyon qilish majburiyati — kuzatuv kengashi a'zolaridan korxonaga nisbatan qaror qabul qilishda ehtiyyotkorlik bilan yondashish;

mustaqil mulohazadan foydalanish majburiyati — kuzatuv kengashi a'zosidan qarorlarni mustaqil, shaxsiy va boshqa manfaatlarni inobatga olmagan holda qabul qilish.

7. Quyidagi shaxslar kuzatuv kengashi a'zoligiga davlat ulushi bo'yicha nomzod bo'la olmaydi:

molija, iqtisodiyot va huquq yoki boshqa sohalarda oliy ma'lumotga ega bo'limgan;
kamida 2 yillik ish tajribasiga ega bo'limgan;

korxona boshqaruvi a'zolari va direktori yoki ularning funksiyalarini amalga oshirayotgan shaxslar, korxonada yoki uning shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar;

iqtisodiy jinoyatlar yoki boshqaruva tartibiga qarshi jinoyatlar uchun sudlanganligi mavjud hamda sud qarorlariga asosan mansab lavozimlarini egallashi cheklangan, shuningdek korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslar;

davlat boshqaruvi organlarining korxonaga nisbatan tartibga soluvchi yoki nazorat (shu jumladan, litsenziyalash organlari va molija-xo'jalik faoliyatini tekshiruvchi organlar) funksiyasini amalga oshiruvchi xodimlari;

qonunchilik hujjatlarida kuzatuv kengashi a'zosi sifatida faoliyat olib borishi taqiqlangan shaxslar;

korporativ boshqaruvchi malaka attestatiga ega bo'limgan shaxslar, qonunchilik hujjatlariga binoan korporativ boshqaruvchi malaka attestatini olish talab etilmaydigan shaxslar bundan mustasno;

besh va undan ortiq kuzatuv kengashlarida a'zo bo'lgan shaxslar, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

so'nggi uch yil ichida korxonaga va (yoki) korxonaning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi.

8. Korxona faoliyati yo'nalihsidan kelib chiqib, komissiya tomonidan nomzodlarga qo'shimcha talablar belgilanishi mumkin.

9. Kuzatuv kengashining mustaqil a'zoligi uchun nomzodlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tanlov asosida saralab olinadi. Bunda, korxona ustavida mustaqil a'zo nomzodini ko'rsatish aksiyador (ishtirokchi) tomonidan amalga oshirilishi belgilangan bo'lsa, ularni tanlab olish ushbu nizom asosida amalga oshiriladi.

10. Korxonaning kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin, O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

11. Nomzodlar tomonidan ariza va ma'lumotlar maxsus veb-portalga elektron raqamli imzo (ERI) bilan yoki identifikatsiya qilish imkonini beruvchi boshqa vositalar orqali tasdiqlangan holda joylashtiriladi, norezident nomzodlar bundan mustasno.

12. Nomzodlar tomonidan to'ldirilgan arizada keltirilgan yoki taqdim etilgan hujjatlar va materiallarda mavjud bo'lган ma'lumotlarning haqiqiy emasligi, ishonchli emasligi va noto'g'riliqi (yolg'onligi) aniqlansa, ushbu nomzod tanlovdan yoki kuzatuv kengashi tarkibidan (agar tarkibga saylangandan so'ng aniqlansa) belgilangan tartibda chetlatiladi.

3-bob. Nomzodlarni tanlab olish va nomzodlar zaxirasini shakllantirish tartibi

13. Nomzodlarni tanlab olish jarayoni korxonalarda kuzatuv kengashi a'zosi sifatida faoliyat olib borish istagida bo'lgan har qanday shaxslar uchun ochiqdir.

14. Jinsi, tili, millati, fuqaroligi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar tanlab olishda ishtirok etish huquqiga ega, mazkur Nizomning **7-bandida** nazarda tutilgan belgilangan shaxslar bundan mustasno.

15. Davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni tanlab olish tartibi ushbu Nizomga **1-ilovada** keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

16. Korxonalar maxsus veb-portalga kuzatuv kengashi a'zolari tarkibida o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu o'zgarishlar sodir bo'lgan kundan boshlab 2 ish kuni ichida joylashtirishi shart. O'zgarishlar sodir bo'lgan sana deb kuzatuv kengashi tarkibini tasdiqlash va

(yoki) ularning tarkibiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig‘ilishi yoki mulkdor (muassis) qarori qabul qilingan sana hisoblanadi.

17. Korxonalar komissiyaning yoki vakolatli davlat organining talabiga asosan korxona faoliyati bilan yoki boshqaruv organi a‘zolari tarkibi bilan bog‘liq qo‘shimcha ma’lumotlarni oshkor etishi shart, qonunchilik hujjatlarida oshkor etilishi taqiqlangan ma’lumotlar bundan mustasno.

18. Komissiya maxsus veb-portal ma’lumotlari asosida davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibidagi mavjud bo‘sh a‘zolik o‘rinlari, shuningdek kuzatuv kengashining amaldagi a‘zolari vakolatlarini muddatidan oldin tugatish oqibatida yuzaga keladigan bo‘sh a‘zolik o‘rinlari ro‘yxatini shakllantiradi, shuningdek korxona va (yoki) vakolatli davlat organi bilan birgalikda nomzodlarga qo‘yiladigan talablarni, nomzodlarni izlash usullarini belgilagan holda ushbu ro‘yxatni tasdiqlaydi. Bunda, bo‘sh a‘zolik o‘rinlari ro‘yxati quyidagi muddatlarda shakllantiriladi va tasdiqlanadi:

davlat ishtirokidagi korxonalarda yuzaga kelgan bo‘sh a‘zolik o‘rinlari ro‘yxati — 10 ish kunida;

kuzatuv kengashining amaldagi a‘zolarining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish oqibatida yuzaga kelgan bo‘sh a‘zolik o‘rinlari ro‘yxati — amaldagi tarkibni o‘zgartirish zarurati yuzaga kelganda, 10 ish kunida va/yoki har yili 1-sentabrga qadar.

19. Komissiya tasdiqlangan bo‘sh a‘zolik o‘rinlari ro‘yxatini 2 ish kuni ichida maxsus veb-portalga joylashtiradi.

20. Komissiya 30 kun davomida nomzodlarni izlash choralarini ko‘radi, bunda nomzodlarni izlash maxsus veb-portal orqali e’lonlar berish yoki maxsus veb-portalda ko‘rsatgan holda nomzodlarni izlab topishga ixtisoslashgan konsalting va (yoki) yuqori malakali mutaxassislarni va rahbar kadrlarni qidirish va yollash bilan shug‘ullanuvchi maxsus “xedxanter” tashkilotlarini jalb etish orqali amalga oshiriladi.

21. Komissiya tomonidan nomzodlarni tanlab olish “xedxanter” tashkilotlarini jalb etish orqali amalga oshirilishi belgilanganda, tanlab olish tartibi va muddatlari vakolatli davlat organi va (yoki) korxona hamda “xedxanter” tashkiloti o‘rtasida tuziladigan kelishuvga muvofiq belgilanadi.

22. Komissiya tomonidan nomzodlarni izlash jarayonlari yakunlanganidan so‘ng 5 kun ichida nomzodlar tomonidan ushbu Nizomga [2- ilovaga](#) muvofiq mezonlar asosida maxsus veb-portalga joylashtirilgan ma’lumotlar (hujjatlar) jamlanadi.

23. Baholash natijalariga ko‘ra komissiya 5 kun ichida bo‘sh a‘zolik o‘rni uchun eng yuqori ball to‘plagan nomzodlarning qisqa ro‘yxatini (short list) tuzadi. Tuzilgan qisqa ro‘yxat (short list)da har bir bo‘sh a‘zolik o‘rniga ko‘rsatiladigan nomzodlar soni 3 nafardan oshmasligi lozim.

24. Komissiya tomonidan, zaruratga qarab, 3 ish kuni ichida nomzodlar bilan suhbat o‘tkaziladi, bunda suhbat tomonlar kelishuviga ko‘ra axborot texnologiyalaridan foydalangan holda onlayn videkonferensiya rejimida o‘tkazilishi mumkin.

Nomzod muqaddam davlat ulushi bo‘yicha korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga taklif etilmagan yoki u bilan suhbat o‘tkazilmagan bo‘lsa, ushbu nomzod bilan suhbat o‘tkazilishi majburiy hisoblanadi.

Nomzod suhbatdan o‘tishdan bosh tortsa yoki suhbatga uzsiz sabablarga ko‘ra kelmasa, u tanloving keyingi bosqichlarida ishtirok eta olmaydi. Suhbat natijalaridan kelib chiqib, eng yuqori ball to‘plagan nomzodlarning qisqa ro‘yxati (short list)ga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

25. Eng yuqori ball to‘plagan nomzodlarning qisqa ro‘yxati (short list) shakllantirilganidan so‘ng, komissiya 5 kun ichida korxona kuzatuv kengashining har bir a‘zolik o‘rniga eng munosib bitta nomzodni tanlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi va vakolatli davlat organiga kiritadi. Bunda, eng yuqori ball to‘plagan nomzodlarning qisqa ro‘yxati (short list)ga kiritilgan qolgan nomzodlar zaxira nomzodlar sifatida belgilanib, keyinchalik zarurat yuzaga kelganda korxona kuzatuv kengashi tarkibiga kiritish uchun vakolatli davlat organiga taklif etilishi mumkin.

26. Vakolatli davlat organi 2 kun ichida komissiya qarori bilan tanlangan nomzodlar bo‘yicha takliflarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda saylash (tasdiqlash) to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun korxonalarga yuboradi.

Tijorat banklarining kengashlari tarkibi a'zoligiga taklif etilayotgan nomzodlar qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq belgilangan tartibda Markaziy bank bilan kelishilishi shart.

27. Korxona vakolatli davlat organidan nomzodlar bo'yicha takliflarni qabul qilganidan so'ng, korxona ustavida belgilangan muddatda ushbu nomzodlarni kuzatuv kengashi tarkibiga saylash (tayinlash) bo'yicha korporativ qarorlar qabul qilinishini tashkil etadi.

28. Komissiyaga belgilangan muddatda kamida 2 ta nomzoddan takliflar kelib tushmagan taqdirda komissiya bu to'g'risida vakolatli davlat organini 2 ish kuni ichida xabardor qilishi shart.

Ushbu holatda komissiya nomzodlar ushbu Nizom talablariga asosan saralab olinguniga qadar mavjud nomzodlar zaxirasidan yoki Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan yuritiladigan reyestridan korporativ boshqaruvchi malaka attestatiga ega nomzodlar reyestridan ma'qul keladigan nomzodlarni tanlab olishi mumkin.

Korxonalar kuzatuv kengashi tarkibida bo'sh a'zolik o'rinalining yuzaga kelishi natijasida kuzatuv kengashi majlislarida kvorum yig'ilmasa, shuningdek korxona faoliyati uchun zarur hamda kechiktirib bo'lmaydigan qarorlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi topshiriqlari ijrosini tashkil etish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish zaruriyati yuzaga kelgan taqdirda, komissiya tomonidan tegishli nomzod saralab olingunga qadar kuzatuv kengashi tarkibiga vakolatli davlat organi tomonidan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan kelishgan holda nomzod kiritilishiga, istisno tariqasida yo'l qo'yiladi.

29. Korxonaning kuzatuv kengashi a'zoligi uchun ushbu Nizomda belgilangan tartibda o'tkazilgan tanlovlар natijasida eng yuqori ball to'plagan nomzodlar qisqa ro'yxat (short list)ga kiritilib, zaxira nomzod sifatida belgilangan shaxs ushbu korxonaning kuzatuv kengashi tarkibiga vakolatli davlat organi tomonidan qayta tanlov o'tkazmagan holda taklif etilishi mumkin. Bunda, vakolatli organ tomonidan nomzodning ushbu Nizomning **7-bandida** belgilangan talablarga muvofiqligi qayta o'rganilishi shart.

30. Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan a'zolar to'g'risidagi maxsus veb-portalda oshkor qilinadigan ma'lumotlarga a'zolar to'g'risidagi ma'lumot, shu jumladan uning ma'lumoti va ish tajribasi, shuningdek tayinlash jarayonining qisqacha tavsifi kiritilishi kerak.

31. Davlat ulushi 50 foizdan kam bo'lgan korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga nomzodlarni saralash ham ushbu Nizom talablari asosida amalga oshirilishi mumkin.

4-bob. Komissiya faoliyatini tashkil etish hamda uning asosiy vazifalari, huquq va majburiyatları

32. Korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga nomzodlarni tanlab olish komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

33. Komissiya a'zolarining soni va shaxsiy tarkibi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan tasdiqlanadi. Bunda komissiya tarkibiga Davlat aktivlarini boshqarish agentligining tegishli tarkibiy bo'linma rahbarlari, korxonalarda davlat nomidan mulkdor (muassis, aksiyador, ishtirokchi) huquqi va funksiyalarini amalga oshiruvchi vazirlik, idoraning vakili kiritiladi, shuningdek komissiya faoliyatiga xalqaro moliya institutlari ekspertlari, konsalting kompaniyalari ilmiy xodimlari va ekspertlari, shuningdek korxonalarning faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib, soha mutaxassislari jalb qilinishi mumkin.

Komissiya a'zolari soni yetti nafardan oshmagan holda toq tarkibda bo'lishi lozim. Komissiyaga Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori yoki uning ko'rsatmasiga asosan direktor o'rinosarlaridan biri raislik qiladi, direktor bo'lmaganda esa, uning vazifalarini bajaruvchi shaxs komissiya raisi vazifasini bajaradi. Komissiya kotibi komissiya majlislari o'tkazilishini hamda uning ishini tashkil etilishini ta'minlaydi.

Komissiya kotibi sifatida Davlat aktivlarini boshqarish agentligining korxonalarning boshqaruv organlariga nomzodlarni shakllantirish bilan shug'ullanuvchi tarkibiy bo'linmasi rahbari yoki mazkur vazifa yuklatilgan shaxs tayinlanadi.

34. Komissiya majlisini o'tkazish uchun kvorum uning jami a'zolarining yetmish besh foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Komissiya qarorlari ishtirok etayotgan a'zolarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, qaror qabul qilinayotganda komissiya a'zolarining ovozlari soni teng bo'lган holatlarda komissiya raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

35. Komissiya tarkibiga kiritiladigan shaxslar kuzatuv kengashiga nomzodlarni tanlab olishni o'tkazish vaqtida shaffoflik, tenglik, raqobat, mustaqillik tamoyillariga qat'iy rioya etishlari lozim.

36. Komissiya qarorlari majlis o'tkazilganidan so'ng 5 ish kuni davomida komissiyaning majlisda ishtirok etgan a'zolari tomonidan imzolanadigan bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi.

37. Komissiya qarorlari maxsus veb-portalda, shuningdek nomzodlarni tanlab olish o'tkazilishi to'g'risida e'lон berilgan ommaviy axborot vositalarida bayonnomaga imzolangan sanadan 2 ish kuni ichida chop etilishi lozim.

38. Har yili komissiya mazkur Nizom talablari bajarilishini o'rganadi va o'rganish natijalariga ko'ra yillik hisobot tuzadi hamda maxsus veb-portalda va (yoki) vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida chop etadi.

Hisobotda komissiya tomonidan o'tkazilgan majlislar va qabul qilingan qarorlar, kuzatuv kengashi tarkibiga nomzodlar jalb qilingan korxonalar va nomzodlar statistikasi aks ettiriladi.

39. Quyidagilar komissiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

kuzatuv kengashining amaldagi a'zolari tarkibini qayta ko'rib chiqish, ularning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish hamda o'miga boshqa nomzodlarni jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

mavjud bo'sh o'rirlarga nomzodlarni jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

kuzatuv kengashi a'zolari tarkibi qayta ko'rib chiqiladigan korxonalar hamda ularning kuzatuv kengashi a'zolik o'rirlari ro'yxatini shakllantirish;

bo'sh a'zolik o'rirlariga jalb etiladigan nomzodlarga qo'yiladigan talablarni belgilash;

nomzodlarni izlash, izlash usullarini belgilash, nomzodlarni tanlov asosida belgilangan mezonlarga muvofiq baholashdan o'tkazish, eng maqbul nomzodlar ro'yxatini shakllantirish.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Hay'ati tomonidan komissiyaga tanlov bilan bog'liq qo'shimcha vazifalar yuklatilishi mumkin.

40. O'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda komissiya quyidagi huquqlarga ega:

korxonalar, vakolatli davlat organi hamda boshqa davlat tashkilotlaridan, shuningdek kuzatuv kengashi a'zolari yoki a'zolikka talabgor nomzodlar to'g'risida tanlab olish jarayonida zarur bo'lган ma'lumot va hujjatlarni so'rab olish;

korxonalar faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqqan holda nomzodlarga qo'shimcha talablarni belgilash;

nomzodlarni tanlab olishning shartlari va usullarini hamda muddatlarini belgilash;

nomzodlarni tanlab olish natijalarini tasdiqlash;

nomzodlarni tanlab olishda mustaqil qaror qabul qilish;

zaruratga ko'ra, moliyaviy maslahatchi-konsultantlar, ekspertlar va boshqa soha mutaxassislarini, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyyati organlari, tarmoq birlashmalari, korxonalarning ijro etuvchi organlari vakillarini komissiya faoliyatiga jalb etish.

41. Komissiya:

korxonalar kuzatuv kengashi tarkibini malakali mutaxassislar bilan to'ldirish bo'yicha vakolatli davlat organining qaror va topshiriqlarini bajarishga;

komissiya majlislarida qabul qilingan qarolarning o'z vaqtida bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishga majbur.

5-bob. Nomzodlarni tanlab olish jarayonini raqamlashtirish va ochiqligini ta'minlash

42. Nomzodlarni tanlab olish jarayonlarini markazlashgan holda boshqarish, shaffofligi va ochiqligini ta'minlash maqsadida korxonalar kuzatuv kengashi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek ularning tarkibidagi bo'sh o'rirlar, e'lон qilingan tanlovlar va ularning natijalari hamda korxonalar faoliyati bo'yicha boshqa ma'lumotlar Davlat aktivlarini boshqarish agentligining maxsus veb-portalda e'lон qilib boriladi.

43. Maxsus veb-portalda quyidagi ma'lumotlar e'lон qilishi lozim:

korxonalar, shu jumladan kuzatuv kengashi faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari hamda mazkur Nizom;

korxonalarning veb-saytlari va (yoki) ularga havolalar;

kuzatuv kengashi va ijro organi a'zolarining tarkibi, ulardagi mavjud bo'sh o'rirlar;

kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan mustaqil a'zolar reyestri;

tanlov o'tkaziladigan a'zolik o'rirlari ro'yxati;

tanlov o'tkazish vaqtiga shartlari;

tanlab olish jarayoni natijalari;

o'tkazilgan tanlab olish natijalari to'g'risida vakolatli organ va komissiyaning yillik hisoboti.

Komissiya talabiga ko'ra korxonalar tomonidan boshqa qo'shimcha ma'lumotlar oshkor etilishi mumkin.

44. Vakolatli davlat organi tanlab olish jarayonida ishtirok etayotgan barcha nomzodlar haqidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirib boradi.

45. Komissiya nomzodlarni tanlab olish jarayonida ma'lumotlar bazasida mavjud axborotlardan foydalanadi.

46. Nomzodlar haqidagi ma'lumotlar bazasida yig'ilgan axborotlar sir saqlanadi va uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

47. Nomzodlar taqdim etgan ma'lumotlarining to'liqligi va to'g'riligi uchun mas'ul hisoblanadi.

48. Mazkur Nizom talablari bajarilishi ustidan nazorat vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

49. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Davlat ishtirokidagi korxonalarining kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni tanlab olish tartibi to'g'risidagi **nizomga**

1.1-ILOVA

Davlat ishtirokidagi korxonalarining kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni saralash

SXEMASI

| Bosqichlar | Subyektlar | Tadbirlar | Bajarish muddatlari |
|------------|---|---|---|
| 1-bosqich | Davlat ishtirokidagi korxona, vakolatli davlat organi, nomzodlarni tanlab olish komissiyasi | Kuzatuv kengashida mavjud bo'lgan, shuningdek amaldagi tarkibni qayta ko'rib chiqish natijasida belgilanadigan bo'sh a'zolik o'rirlari ro'yxatini shakllantirish va nomzodlarga qo'yiladigan malaka talablarini hamda nomzodlarni izlash usullarini belgilagan holda tasdiqlash | Bo'sh a'zolik o'rni vujudga kelgan holatda 10 ish kuni ichida Amaldagi tarkibni o'zgartirish zarurati vujudga kelganda — 10 ish kunida va/yoki har yili 1-sentabrga qadar |
| 2-bosqich | Nomzodlarni tanlab olish komissiyasi | Tasdiqlangan bo'sh a'zolik o'rirlari ro'yxatini ushbu bo'sh o'rirlar bo'yicha belgilangan talablar va mezonlar bilan birga maxsus veb-portalda chop etish | Ro'yxat tasdiqlanganidan so'ng — 2 ish kuni ichida |

| | | | |
|------------------|--------------------------------------|---|---|
| 3-bosqich | Nomzodlarni tanlab olish komissiyasi | <p>ro‘yxat bo‘yicha bo‘s h a’zolik o‘rinlariga nomzodlarni izlash, bunda izlash quyidagi usullardan birini qo‘llagan holda amalga oshiriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> maxsus veb-portal orqali e’lonlar berish; nomzodlarni izlab topishga ixtisoslashgan konsalting va (yoki) “xedxanter” tashkilotlarini jalg etish orqali | <p>Ro‘yxat maxsus veb-portalda chop etilganidan so‘ng — 30 kun davomida Tegishli “xedxanter” tashkiloti bilan tuziladigan shartnomada ko‘rsatilgan muddatda</p> |
| 4-bosqich | Nomzodlarni tanlab olish komissiyasi | Talabgor nomzodlar ro‘yxatini tuzish va ularni belgilangan mezonlar asosida maxsus veb-portalga joylashtirilgan ma’lumotlar (hujjatlar)ni jamlash | Nomzodlarni izlash jarayonlari yakunlanganidan so‘ng 5 ish kuni ichida |
| 5-bosqich | Nomzodlarni tanlab olish komissiyasi | Har bir a’zolik o‘rn ni uchun 3 kishidan oshmaydigan eng yuqori ball to‘plagan nomzodlarning qisqa ro‘yxati (short list)ni tuzish | Baholash yakunlanganidan so‘ng 5 ish kuni ichida |
| 6-bosqich | Nomzodlarni tanlab olish komissiyasi | Zaruratga ko‘ra nomzodlar bilan suhbat o‘tkazish, bunda suhbat tomonlar kelishuviga ko‘ra axborot texnologiyalaridan foydalangan holda onlayn videokonferensiya rejimida o‘tkazilishi mumkin | Eng yuqori ball to‘plagan nomzodlarning qisqa ro‘yxati (short list) tuzilganidan so‘ng 3 ish kuni ichida |
| 7-bosqich | Nomzodlarni tanlab olish komissiyasi | Eng yuqori ball to‘plagan nomzodlarning qisqa ro‘yxati (short list) dan kuzatuv kengashining har bir a’zolik o‘rniga eng munosib bitta nomzodni tanlash to‘g‘risida qaror qabul qilish va vakolatli davlat organiga kiritish | Eng yuqori ball to‘plagan nomzodlarning qisqa ro‘yxati (short list) tuzilganidan so‘ng 5 ish kuni ichida |
| 8-bosqich | Vakolatli davlat organi | Nomzodlar bo‘yicha takliflarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda saylash (tasdiqlash) to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun korxonalarga yuborish | Nomzodlarni tanlab olish komissiyasi qarori qabul qilinganidan so‘ng 2 ish kuni ichida |
| 9-bosqich | Davlat ishtirokidagi korxonalar | Korxona vakolatli davlat organidan nomzodlar bo‘yicha takliflarni qabul qilganidan so‘ng, korxona ustavida belgilangan muddatda ushbu nomzodlarni kuzatuv kengashi tarkibiga saylash (tayinlash) bo‘yicha | Nomzod taqdim etilgandan so‘ng — qonunchilikda yoki davlat ishtirokidagi korxona ustavida belgilangan muddatda |

| | | | |
|------------|---------------------------------|--|--|
| | | korporativ qarorlar qabul qilinishini tashkil etish | |
| 10-bosqich | Davlat ishtirokidagi korxonalar | Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan nomzodlar ro'yxatini va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni maxsus veb-portalda e'lon qilish | Qaror qabul qilinganidan so'ng 2 ish kuni ichida |

Davlat ishtirokidagi korxonalarining kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni tanlab olish tartibi to'g'risidagi nizomga

1.2-ILOVA

KUZATUV KENGASHI A'ZOLIGIGA NOMZOD TO'G'RISIDA MA'LUMOT

(davlat ishtirokidagi korxona nomi ko'rsatiladi)

(nomzodning FISH)

| T/r | Baholash mezonlari | Mezonga muvofiqlik ballari | Nomzodning muvofiqlik ballari* |
|-------------------------------------|---|----------------------------|--------------------------------|
| I. KASBIY BILIM-KO'NIKMALARI | | | |
| 1. | Quyidagi sohalardan biri bo'yicha bakalavr darajasiga egaligi: moliya, iqtisodiyot va huquq yoki boshqa yo'nalishlar | 10 | |
| 2. | Oliy ta'lim muassasalarining, shu jumladan Davlat boshqaruvi akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Soliq akademiyasining magistrlik darajasiga egaligi | 10 | |
| 3. | Quyidagi sohalardan biri bo'yicha xorijiy oliy ta'lim muassasalarining magistrlik darajasiga egaligi: moliya, iqtisodiyot va huquq yoki boshqa sohalar | 10 | |
| II. ISh TAJRIBASI | | | |
| 4. | Korporativ boshqaruv, qimmatli qog'ozlar bozori, strategik rejalashtirish, xodimlarni boshqarish sohalari bilan bog'liq ma'muriy va boshqaruv kadrlari lavozimlarida davlat tashkilotlari, davlat ishtirokidagi korxonalar (5-bandda ko'rsatilgan lavozimni egallagan davri bundan mustasno) ish tajribasi | | |
| | bir yilgacha (shu jumladan bir yil to'liq) | 4 | |
| | 3 (uch) yilgacha (shu jumladan 3 yil to'liq) | 5 | |
| | 3 (uch) yildan 5 (besh) yilgacha (shu jumladan 5 yil to'liq) | 7 | |
| 5. | 5 (besh) yildan ortiq | 8 | |
| | Rahbarlik lavozimlarida (rahbar, rahbar o'rinnbosari, menejer, supervayzer) kamida bir yil xorijiy davlatlarda ish tajribasi yoki korporativ boshqaruv, qimmatli qog'ozlar bozori, strategik rejalashtirish, kadrlar menejmenti, audit, soliqqa tortish, moliya va investitsiyalar, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish, inqirozga qarshi boshqaruv ?ohalarida xorijiy yuristiksiyalardagi masalalarni hal qilish bo'yicha amaliy tajribaga egaligi | | |
| | bir yilgacha (shu jumladan bir yil to'liq) | 3 | |
| | 3 (uch) yilgacha (shu jumladan 3 yil to'liq) | 4 | |

| | | | |
|---|--|----|--|
| | 3 (uch) yildan 5 (besh) yilgacha (shu jumladan 5 yil to‘liq) | 6 | |
| | 5 (besh) yildan ortiq | 7 | |
| 6. | Boshqa tashkilotlardagi va xususiy kompaniyalardagi rahbarlik lavozimlarida (tashkilot rahbari, rahbar o‘rinbosari, bosh hisobchi, yuridik xizmat boshlig‘i, korporativ boshqaruv sohasida faoliyat yuritadigan boshqarma boshlig‘i, vakolatxona yoki filial rahbari) ish tajribasi | | |
| | bir yilgacha (shu jumladan bir yil to‘liq) | 2 | |
| | 3 (uch) yilgacha (shu jumladan 3 yil to‘liq) | 3 | |
| | 3 (uch) yildan 5 (besh) yilgacha (shu jumladan 5 yil to‘liq) | 4 | |
| | 5 (besh) yildan ortiq | 5 | |
| 7. | Tegishli soha tashkilotlarida ma’muriy va boshqaruv lavozimlarida ish tajribasi | | |
| | 2 (ikki) yil to‘liq | 2 | |
| | 3 (uch) yilgacha (shu jumladan 3 yil to‘liq) | 3 | |
| | 3 (uch) yildan 5 (besh) yilgacha (shu jumladan 5 yil to‘liq) | 4 | |
| | 5 (besh) yildan ortiq | 5 | |
| 8. | Kuzatuv kengashi a’zosi sifatida ish tajribasi | | |
| | bir yilgacha (shu jumladan bir yil to‘liq) | 5 | |
| | 3 (uch) yilgacha (shu jumladan 3 yil to‘liq) | 8 | |
| | 3 (uch) yildan 5 (besh) yilgacha (shu jumladan 5 yil to‘liq) | 10 | |
| | 5 (besh) yildan ortiq | 15 | |
| III. QO‘ShIMChA MALAKALARING MAVJUDLIGI | | | |
| 9. | Qimmatli qog‘ozlar bozori mutaxassis, auditor, sug‘urtalovchi, baholovchi, sud boshqaruvchisi malaka talablariga muvofiqligini tasdiqllovchi amal qilish muddatiga ega hujjatning mavjudligi | 5 | |
| 10. | Iqtisodiyot, moliya, huquqshunoslik, korporativ boshqaruv sohasida kamida 2 ta xorijiy davlatlarda stajirovkadan o‘tganligi bo‘yicha tasdiqllovchi hujjatlarning mavjudligi | 5 | |
| 11. | Kuyidagi xalqaro sertifikatlardan birining mavjudligi (CFA, SRA, ASSA, ASA, CIMA, IMC, FRM) | 10 | |
| 12. | Amal qilish muddatiga ega korporativ boshqaruvchi malaka attestatining mavjudligi | 10 | |
| IV. KUZATUV KENGASHI IShTIROK ETISH IMKONIYATI | | | |
| 13. | Boshqa korxonalarining kuzatuv kengashidagi a’zoligi | | |
| | 1 ta korxonada kuzatuv kengashi a’zosi bo‘lganda | 5 | |
| | 2 ta korxonada kuzatuv kengashi a’zosi bo‘lganda | 10 | |
| | 3 ta korxonada kuzatuv kengashi a’zosi bo‘lganda | 15 | |
| | 4 ta korxonada kuzatuv kengashi a’zosi bo‘lganda | 20 | |

Jami maksimal ballar yig‘indisi: 100 ball

Nomzod to‘plagan ballar yig‘indisi: _____ ball.

Ushbu bilan nomzod sifatida quyidagilarni:

yuqoridagi mezonlar bo‘yicha kiritilgan ma’lumotlarning men tomonimdan to‘g‘ri va tasdiqllovchi hujjatlarga asosan kiritilganligini;

quyidagi sohalardan biri bo‘yicha oliy ma’lumotga egaligimni: moliya, iqtisodiyot va huquq yoki boshqa sohalar;

kamida 2 yillik ish tajribasiga egaligimni;
korxona boshqaruvi a'zolari va direktori yoki ularning funksiyalarini amalga oshirayotgan shaxslar, korxonada yoki uning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlamasligimni;

iqtisodiy jinoyatlar yoki boshqaruvi tartibiga qarshi jinoyatlar uchun tugatilmagan sudlanganlik mavjud emasligini hamda sud qarorlariga asosan mansab lavozimlarini egallashi cheklangan, shuningdek korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilmaganligimni;

davlat boshqaruvi organlarining korxonaga nisbatan tartibga soluvchi yoki nazorat (shu jumladan, litsenziyalash organlari va moliya-xo'jalik faoliyatini tekshiruvchi organlar) funksiyasini amalga oshiruvchi xodimi emasligimni;

qonunchilik hujjatlarida kuzatuv kengashi a'zosi sifatida faoliyat olib borishi taqilangan shaxs emasligimni;

amat qilish muddati tugamagan korporativ boshqaruvchi malaka attestatiga egaligimni;

besh va undan ortiq kuzatuv kengashlarida a'zo emasligimni;

so'nggi uch yil ichida korxonaga va (yoki) korxonaning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi emasligimni;

ushbu arizada keltirilgan barcha ma'lumotlarning, shuningdek unga ilova qilingan hujjatlar va materiallarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarning haqiqiyligi, ishonchliligi va to'g'riliгини tasdiqlayman.

Men tomonimdan haqiqiy bo'limgan, ishonchsiz va noto'g'ri (yolg'on) ma'lumotlar berilganligi aniqlangan taqdirda, tanlovdan yoki kuzatuv kengashi tarkibidan (agar tarkibga saylangandan so'ng aniqlansa) chetlatilishim to'g'risida xabardorman.

Izohlar

1. Ushbu ariza shakli nomzod tomonidan www.cns.davaktiv.uz maxsus portalni orqali to'ldiriladi va elektron raqamli imzo yoki identifikatsiya qilish imkonini beruvchi boshqa vositalar orqali tasdiqlanadi, norezident nomzodlar bundan mustasno.

* Nomzodning belgilangan mezonlarga muvofiqligi bo'yicha ma'lumotlar (ballar) nomzod tomonidan to'ldiriladi va muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjatlar maxsus dasturga yuklanadi.

2. Komissiya yoki vakolatli davlat organi korxonalar ixtisosligidan kelib chiqib, ushbu mezon va ballarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-noyabrdagi 647-son qaroriga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan deb e'tirof etilayotgan qarorlari

RO'YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining "Davlat aktivlarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 26-apreldagi 356-son qarorining [1](#) va 2-bandining [ikkinchi](#), [uchinchi](#) va [oltinchi xatboshilarini](#) hamda [3](#) va [4-bandlari](#).

2. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mehnatga haq to'lash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2019-yil 21-maydagi PF-5723-son Farmoni)" 2019-yil 28-dekabrdagi 1046-son qaroriga ilovaning [288-band](#).

3. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 22-yanvardagi PQ-4569-son, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4612-son, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tuzilmasiga Bosh vazirning investitsiyalar va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari bo'yicha o'rinbosari — investitsiyalar va tashqi savdo vaziri lavozimini kiritish to'g'risida" 2020-yil 10-martdagi PQ-4635-son va "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar

to‘g‘risida” 2020-yil 12-maydagi PQ-4710-son qarorlari)” 2020-yil 26-iyundagi 411-son qaroriga 1-ilovaning **58-bandı**.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.11.2022-y., 09/22/647/0997-son)